



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 23 - noyabr

74-8-0-F/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

Viloyatda 2021-yil kuz va 2022-yil bahor mavsumlarida ko‘kalamzorlashtirish, manzarali, mevali va buta ko‘chatlarini ekish ishlarini tizimli va uyushqoqlik bilan tashkil etish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-noyabrdagi 694-F-sonli farmoyishi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2021-yil kuz va 2022-yil bahor mavsumlarida manzarali, mevali daraxt va butalar ko‘chatlari hamda qalamchalarini ekishning prognoz ko‘rsatkichlari 1 va 2-ilovalarga muvofiq;

2021-yil kuz va 2022-yil bahor mavsumlarida ekish uchun ko‘chat va qalamchalar etkazib berishning prognoz ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

Manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalarini shartnoma asosida yetkazib berish hamda ekish ishlarini muvofiqlashtiruvchi viloyat ishchi guruhi tarkibi 4-ilovaga hamda tumanlar (shahar) ishchi guruhlarining namunaviy tarkibi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar Ishchi guruhlarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

hududlarda ko‘chatlarni sotib olish yuzasidan shartnomalar tuzish, to‘lovlarni oldindan amalga oshirish, ko‘chat yetkazib berish va ekish bo‘yicha kunlik monitoring yuritish;

ko‘chat ekish va ularni to‘liq undirib olish uchun sug‘orish ishlarini tashkil etish bo‘yicha yuzaga keladigan muammolarni tezkor hal etish;

har haftaning Juma kuni hududlarda ko‘chat ekish bo‘yicha tahliliy ma’lumotlarni viloyat va respublika ishchi guruhiga kiritish;

ekilgan ko‘chatlarni parvarishlash, ularni payhon qilishdan saqlash yuzasidan monitoring olib borish;

har haftada hududiy ishchi guruh tomonidan tahliliy ma’lumotlarni tegishli ravishda viloyat hokimiga taqdim etish.

4. Viloyat ishchi guruhi rahbari o‘rinbosari (B.Urinov) tumanlar hokimliklari hamda tegishli boshqarmalar va idoralar bilan birgalikda:

belgilangan tartibda 2021-yil kuz va 2022-yil bahor mavsumlarida ekiladigan daraxt ko‘chatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni “ko‘chat2021.uz” yagona elektron bazasi negizida shakllantirsin hamda ularning ushbu bazaga muntazam kiritib borilishini tashkil etsin;

mazkur farmoyishda nazarda tutilgan ko‘chatlarni sotib olish yuzasidan shartnomalar tuzish, to‘lovlarni amalga oshirish, ko‘chat yetkazib berish, ekish bo‘yicha viloyat miqyosida kunlik monitoring yuritish hamda joylarda ekilgan ko‘chatlarning holati to‘g‘risida har haftaning Juma kuni viloyat ishchi guruhiga tahliliy-tanqidiy axborot taqdim etib borsin;

ekilgan daraxt ko‘chatlarini mavsum davomida parvarishlash, ularni zararkunandalardan himoya qilish va payhon etilishining oldini olish ustidan ta‘sirchan nazorat o‘rnatsin.

5. Viloyat O‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi, tumanlar hokimliklari belgilangan miqdordagi ko‘chatlar hamda qalamchalarini olish istagini bildirgan viloyatdagi barcha xo‘jalik birlashmalari va tashkilotlarga shartnoma asosida yetkazib berilishini ta‘minlasin.

6. Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi (M.Murodov) va barcha tumanlar hokimliklari:

mazkur farmoyishga muvofiq bir hafta muddatda 2021-yil kuz va uch oy muddatda 2022-yil bahor faslida ko‘chat ekish hajmlari bo‘yicha manzilli dasturni tasdiqlasin;

xo‘jalik va aholi uchun ko‘chatlarni tizimli etkazib berish maqsadida bozorlar va boshqa qulay manzillarda ko‘chat sotish nuqtalarini tashkil etsin;

tuman va shahar markazlarida arxitektura va landshaft-dizayn talablari asosida ko‘rk beruvchi manzarali ko‘chatlarni ekish choralarini ko‘rsin;

mahalla, qishloq, aholi yashash punktlari, ko‘p qavatli binolar va uy-joylar, hovlilar atrofi, guzarlar, xiyobonlar, ziyoratgohlar va qabristonlar, avtomobil va temir yo‘llari atrofi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi yerlarida (ihota) hamda o‘rmon fondi yerlarida manzarali daraxt va buta ko‘chatlarini ekish tadbirlarini uyushqoqlik bilan o‘tkazsin;

tumanlar hokimliklari zaxirasidagi yer maydonlarida, qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan yer maydonlarining chetlarida, daryo qirg‘oqbo‘yi mintaqasi muhofazasi zonalarida pavloniya, tut, chinor va boshqa tez o‘sovchi daraxtlar ko‘chatlarining ekilishiga alohida e‘tibor qaratsin;

ko‘chat ekilgan obyektlarga mas‘ullarni biriktirish, ular tomonidan ko‘chatlarni mavsum davomida parvarishlash, ularni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish hamda payhon etilishining oldini olish, shuningdek, mavsum yakunida ko‘chat ekilgan hududlarni yer egalariga topshirish, ya‘ni ko‘chat ekilganligi to‘g‘risida bayonnoma rasmiylashtirish orqali tegishli hujjatlarga o‘zgartirish kiritish choralarini ko‘rsin.

7. Viloyat Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi hamda Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi ko‘kalamzorlashtirish tadbirlariga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning keng jalb etilishini ta‘minlasin.

8. Viloyat teleradiokompaniyasiga ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarining ahamiyati va uni amalga oshirish jarayonini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят хокимининг
2021 йил 23 ноябрдаги
74-8-0-F/21-сон фармойишига
1-илова

2021-yil kuz va 2022-yil bahor mavsumlarida manzarali, mevali daraxt va butalar ko'chatlari hamda qalamchalarini ekishning

PROGNOZ KO'RSATKICHLARI

ming dona

T/r	Hududlar	Jami ekiladigan manzarali daraxt va buta ko'chatlari soni	Shundan											
			Shundan		umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llari yoqasi	qishloq xo'jaligi daraxtzorlar barpo etiladigan yerlarda	fermer xo'jaliklari ekin yer maydonlari chetlariga	ijtimoiy soha (maktab, kasalxona, o'quv yurtlari) obyektlari va tashkilotlar hududlarida				korxonalar va xizmat ko'rsatish sohalari hududlarida	tuman (shahar)lardagi obodonlashtirish boshqarmalari tasarrufidagi hududlar va obyektlarda	tuman (shahar)lardagi MFY hududlari va boshqa obyektlar hududlarida
			2021-noyabr dekabr oylarida	2022-yil bahor mavsumida				oliy va o'rta maxsus ta'lim yo'nalishi obyektlarida	xalq ta'limi yo'nalishi obyektlarida	maktabgacha ta'lim yo'nalishi obyektlarida	sog'liqni saqlash yo'nalishi obyektlarida			
	Jami	16015	6005	10009	111	550	4961,000152	204	216	147	352	3371	3253	2850
1	Angor	1067	402	665	7,4	36,8	332,3	13,7	14,5	9,8	23,6	224,7	216,8	190,0
2	Boysun	1063	396	667	7,3	36,3	327,1	13,5	14,2	9,7	23,2	223,8	216,0	189,2
3	Bandixon	1062	380	682	7,0	34,8	314,1	12,9	13,7	9,3	22,3	223,5	215,7	189,0
4	Denov	1070	410	660	7,6	37,5	338,7	13,9	14,7	10,0	24,0	225,3	217,4	190,5
5	Jarqo'rg'on	1068	406	662	7,5	37,2	335,1	13,8	14,6	9,9	23,8	224,8	217,0	190,1
6	Qiziriq	1069	392	677	7,3	35,9	323,9	13,3	14,1	9,6	23,0	225,0	217,1	190,2

7	Qumqo'rg'on	1069	405	664	7,5	37,1	334,6	13,8	14,6	9,9	23,7	225,1	217,2	190,3
8	Muzrabot	1070	406	663	7,5	37,2	335,4	13,8	14,6	9,9	23,8	225,1	217,2	190,3
9	Oltinsoy	1067	400	667	7,4	36,6	330,4	13,6	14,4	9,8	23,4	224,6	216,8	189,9
10	Sariosiyo	1068	403	665	7,5	36,9	333,0	13,7	14,5	9,9	23,6	224,8	217,0	190,1
11	Termiz	1067	403	664	7,5	36,9	332,9	13,7	14,5	9,9	23,6	224,6	216,7	189,8
12	Uzun	1070	403	667	7,5	36,9	333,0	13,7	14,5	9,9	23,6	225,2	217,3	190,4
13	Sherobod	1070	404	666	7,5	37,0	333,7	13,7	14,5	9,9	23,7	225,1	217,3	190,3
14	Sho'rchi	1068	400	668	7,4	36,6	330,4	13,6	14,4	9,8	23,4	224,9	217,0	190,1
15	Termiz shahar	1067	395	672	7,3	36,2	326,3	13,4	14,2	9,7	23,2	224,5	216,7	189,8

Сурхондарё вилоят хокимининг
2021 йил 23 ноябрдаги
74-8-0-F/21-сон фармойишига
2-илова

2021-yil kuz va 2022-yil bahor mavsumlarida manzarali, mevali daraxt va butalar ko'chatlari hamda qalamchalarini ekishning tashkilotlar kesimida

PROGNOZ KO'RSATKICHLARI

ming dona

T/r	Hududlar	Jami ekiladigan ko'chatlari va qalamchalar miqdori	Shundan		shu jumladan																										
			2021-noyabr dekabr oylarida	2022-yil bahor mavsumida	Kashtan	Lola daraxti	Lipa	Oqqayin	Eman	Yapon saforasi	Katalpa	Shumtol	Qayrag'och	Pavloniya	Terak	Zarang	Akatsiya	Chinor	Tut	Jiyda	Yong'og	Behi	Uzum	qirim qarag'ayi	Virgin archasi	Sharq tuyasi	Suriya atirguli	Hind sireni	Mevali va yong'og mevali daraxt ko'chatlari	Boshqa turdagi manzarali daraxt va buta ko'chatlari	qalamchalar
	Jami	16015	6005	10009					60	120	100	150	180	89	140	120	150	5	850	30	50	10	30	3	15	16	35	20	1200	6700	5942
1	Angor	1067	402	665					4	8,1	6,6	9,7	11,3	6,6	9,5	8,1	8,3	0,5	57,1	1,5	3,5	0,8	2		1	1	3	1,5	80	447	397
2	Boysun	1063	396	667					6	7,8	6,6	10	11,2	6,1	9,6	7,8	8,5		57,1	1,5	3,6	0,6	1,9		1	1	2	1	80	445	395
3	Bandixon	1062	380	682						8,2	6,7	10	13,6	6,1	10	8,2	8,9	0,5	57,3	1,5	3,5	0,6	2		1	1	2	1	80	445	395
4	Denov	1070	410	660					4	7,6	6,7	10	11,5	6,1	10	7,6	8,9		57,1	1,5	3,3	0,8	2		1	1	3	1,5	80	447	399
5	Jarqo'rg'on	1068	406	662					4	7,9	7,1	9,8	11,8	6,1	9,9	7,9	9,1		57,2	1,5	3,4	0,6	2		1	1	3	1,5	80	447	396
6	Qiziriq	1069	392	677						8,2	6,8	10,2	13,3	6,1	10	8,2	8,8		57,1	4	3,4	0,6	2		1	1	2	1	80	447	398
7	Qumqo'rg'on	1069	405	664					4	7,9	6,5	10,2	12,1	6,3	10	7,9	8,6		57,3	1,5	3,2	0,6	1,9		1	1	2	1	80	447	399
8	Muzrabot	1070	406	663						8,3	6,7	10,2	13,2	6,1	9,6	8,3	8,5		57,1	5	3,3	0,8	2,1		1	1	2	1	80	447	398

9	Oltinsoy	1067	400	667					6	7,7	6,7	9,8	11,2	6,1	10	7,7	8,6		57,1	1,5	3,2	0,6	1,9		1	1	2	1,5	80	447	397
10	Sariosiyo	1068	403	665					6	7,6	6,5	9,9	11,6	6,1	10	7,6	8,8	1	57,1	1,5	3,1	0,5	2		1	1	3	1,5	80	447	395
11	Termiz	1067	403	664					4	8,3	6,9	10,2	11,8	6,4	9,8	8,3	8,7	1	57,3	3	3,3	0,8	2		1	2	2	1,5	80	447	392
12	Uzun	1070	403	667					6	7,9	6,7	10	11,6	6,1	10	7,9	8,5		57,1	1,5	3,5	0,6	2		1	1	2	1,5	80	447	398
13	Sherobod	1070	404	666					6	8,3	6,4	9,9	11,5	6,1	9,6	8,3	8,5	0,5	57,1	1,5	3,4	0,4	2		1	1	2	1,5	80	447	398
14	Sho'rchi	1068	400	668					4	8,2	6,3	10,1	12,3	6,1	10	8,2	8,6	0,5	57	1,5	3,4	0,8	2		1	1	2	1,5	80	447	397
15	Termiz shahar	1067	395	672					6	8	6,8	10	12	2,6	2	8	28,7	1	50	1,5	2,9	0,9	2,2	3	1	1	3	1,5	80	447	388

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 23 ноябрдаги
74-8-0-F/21-сон фармойишига
3-илова

2021-yil kuz va 2022-yil bahor mavsumida ekish uchun ko'chat va qalamchalar yetkazib berishning

PROGNOZ KO'RSATKICHLARI

T/r	Hududlar nomi	Hududlar va ko'chat (qalamcha) yetkazib beruvchi subyektlar	Jami yetkazib beriladigan ko'chatlar (qalamcha) soni, ming dona
1	Viloyat jami	O'rmon xo'jaligi boshqarmasi	2761
		Ko'chatchilik fermer xo'jaliklari	6068
		Boshqalar	7185
		Jami	16015
2	Angor tumani	O'rmon xo'jaligi boshqarmasi	184
		Ko'chatchilik fermer xo'jaliklari	404
		Boshqalar	479
		Jami	1067
3	Boysun tumani	O'rmon xo'jaligi boshqarmasi	183
		Ko'chatchilik fermer xo'jaliklari	403
		Boshqalar	477
		Jami	1063

4	Bandixon tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	183
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	402
		Boshqalar	476
		Jami	1062
5	Denov tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	405
		Boshqalar	480
		Jami	1070
6	Jarqoʻrgʻon tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	405
		Boshqalar	479
		Jami	1068
7	Qiziriq tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	405
		Boshqalar	480
		Jami	1069
8	Qumqoʻrgʻon tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	405
		Boshqalar	480
		Jami	1069

9	Muzrabot tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	405
		Boshqalar	480
		Jami	1070
10	Oltinsoy tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	404
		Boshqalar	479
		Jami	1067
11	Sariosiyo tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	405
		Boshqalar	479
		Jami	1068
12	Termiz tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	404
		Boshqalar	479
		Jami	1067
13	Uzun tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	405
		Boshqalar	480
		Jami	1070

14	Sherobod tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	405
		Boshqalar	480
		Jami	1070
15	Shoʻrchi tumani	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	405
		Boshqalar	479
		Jami	1068
16	Termiz shahar	Oʻrmon xoʻjaligi boshqarmasi	184
		Koʻchatchilik fermer xoʻjaliklari	404
		Boshqalar	479
		Jami	1067

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 23 ноябрдаги
74-8-0-F/21-сон фармойишига
4-илова

Manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlari hamda qalamchalarini shartnoma asosida yetkazib berish hamda ekish ishlarini muvofiqlashtiruvchi viloyat ishchi guruhining tarkibi

1. U.Turapov viloyat hokimining o‘rinbosari, **ishchi guruh rahbari**
2. B.Urinov viloyat Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig‘i, **ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
3. O.Muhammadiyev viloyat O‘rmon xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i, **ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
4. K.Eshmatov viloyat Qurilish bosh boshqarmasi boshlig‘i
5. M.Murodov viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i
6. T.Alimov “Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i
7. J.Qilichov viloyat Avtomobil yo‘llari boshqarmasi boshlig‘i
8. F.Tairov viloyat Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig‘i
9. J.Choriyev Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
10. A.Axmedov viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi boshlig‘i
11. U.Boboqulov viloyat Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi
12. F.Mirzayev viloyat hokimining Qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kotibiyati mudiri, ishchi guruh kotibi

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 23 ноябрдаги
74-8-0-F/21-сон фармойишига
5-илова

Manzarali, mevali daraxt va butalar ko‘chatlari hamda qalamchalarini shartnoma asosida yetkazib berish hamda ekish ishlarini muvofiqlashtiruvchi tuman (shahar)lar ishchi guruhlarini namunaviy

TARKIBI

1. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, **ishchi guruh rahbari**
2. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi boshlig‘i, **ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
3. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) O‘rmon xo‘jaligi direktori **ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
4. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) qurilish bo‘lim boshlig‘i
5. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
6. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
7. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) irrigatsiya bo‘limi boshlig‘i
8. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) avtomobil yo‘llari bo‘limi boshlig‘i
9. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i
10. Lavozimiga ko‘ra Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limi boshlig‘i
11. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) kasaba uyushmasi raisi
12. Lavozimiga ko‘ra tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi
13. Lavozimiga ko‘ra tuman (shahar) hokimligi bosh mutaxassisi, **ishchi guruhi kotibi**